MARKET YANDEX GO SHARTNOMALARI

MARKET YANDEX GO SHARTNOMALARI QANDAY TUZILGAN

Market Yandex Go'ning boshqa platformalardan (masalan, Uzum) asosiy farqi shundaki, bu yerda ikki tomonlama shartnoma tuzilmasi amal qiladi. Market Yandex Go'da ishlashni boshlash uchun siz avtomatik ravishda ikki oferta shartnomasini qabul qilasiz:

1 **Joylashtirish uchun**

2 **Targ'ibot uchun**

JOYLASHTIRISH HAQIDA SHARTNOMA

Ushbu shartnoma doirasida Market Yandex Go sizga marketpleys xizmatlarini taqdim etadi: tovarlarni vitrinaga joylashtiradi, buyurtmalarni qadoqlaydi va yetkazib beradi, ortiqcha tovarlar bilan ishlaydi va hokazo. Ushbu shartnomaga ko'ra, Market Yandex Go xaridorlardan tovarlar uchun pul qabul qilish va o'tkazish bo'yicha agent vazifasini bajaradi. Shartnomani o'qish

Joylashtirish haqidagi shartnomada buyurtmachi sifatida sotuvchi, ijrochi sifatida esa "YGO UB" MCHJ qatnashadi.

Bu yerda shu muhim

- **Market Yandex Go agent sifatida ishlaydi** — u xaridorlardan to'lovni qabul qiladi va uni sizga o'tkazadi
- Ayni damda, **u vositachi emas** va o'rningizga tovarlarni sotmaydi
- Shartnoma faqat shuni mustahkamlaydi: Market siz bilan xaridor o'rtasida tovar oldi-sotdi shartnomasi tuzilishi uchun maydon taqdim etadi

Ko'rsatilgan xizmatlar narxini Market xaridorlarning to'lovlaridan avtomatik tarzda ushlab qoladi.

- Agar xaridorlar to'lovi yetarli bo'lsa — sotuvchi xizmatlar uchun Marketdan qarzdor bo'lmaydi va alohida to'lov qilmaydi

- Agar to‘lov yetarli bo‘lmasa (masalan, sotuvlar kam, qaytarishlar ko‘p yoki xizmatlar narxi yuqori bo‘lsa) — Market’dan qarzdorlik yuzaga keladi va sotuvchi xizmatlar uchun haq to‘laydi

TARG‘IBOT HAQIDA SHARTNOMA

Ushbu shartnoma bo‘yicha Market Yandex Go‘ga yangi foydalanuvchilarni jalb qilish xizmatlari ko‘rsatiladi, shuningdek, ularning marketpleysga qiziqishi va sodiqligi jumladan, qo‘shma aksiyalar o‘tkazish va/yoki sodiqlik dasturida ishtirok etish hisobidan xaridorga tovarni chegirma bilan sotib olish imkoniyatini berish orqali oshib boradi. Agar tovar chegirma bilan sotib olinsa, Market Yandex Go sizga uning summasini o‘tkazib beradi. Bu hamma uchun foydali: xizmat yangi foydalanuvchilar, do‘kon esa yangi xaridorlarga ega bo‘ladi.

Targ‘ibot haqidagi shartnomada buyurtmachi sifatida "YGO UB" MCHJ, ijrochi sifatida esa sotuvchi ishtirok etadi. Ya’ni, siz Market’ga targ‘ibot xizmatini ko‘rsatasiz va u barcha taqdim etilgan chegirmalar miqdorida **sizga haq to‘laydi.**

! Joylashtirish va Targ‘ibot shartnomalari ajralmas bo‘lib, faqat birgalikda tuziladi va bekor qilinadi.

10 000 so‘mlik tovar misolida ko‘rib chiqamiz.

1-holat. Chegirmasiz

- **Vitrinadagi narx:** 10 000 so‘m
- **Xaridor tovar uchun 10 000 so‘m to‘laydi** — bu tovarni sotishdan tushgan tushum, kassa cheki ushbu summaga tuziladi
- **Market joylashtirish xizmatini ushlab qoladi:** 500 so‘m
- **Market joylashtirish shartnomasi bo‘yicha qancha o‘tkazadi:** 9 500 so‘m

2-holat. Chegirmali

Agar tahlillar ushbu tovarga chegirma foydalanuvchilarni xizmatga jalb qilishini ko‘rsatsa, narx, masalan, 1000 so‘mga pasaytirilishi mumkin. Xaridor vitrinada yangi narxni — 9 000 so‘mni ko‘radi.

Bu holda hisob-kitob quyidagicha bo‘ladi:

- **Vitrinadagi narx:** 9 000 so‘m
- **Xaridor tovar uchun 9 000 so‘m to‘laydi** — bu tovarni sotishdan tushgan tushum, ushbu summaga kassa cheki tuziladi
- **Market joylashtirish xizmatini ushlab qoladi:** 500 so‘m
- **Market joylashtirish shartnomasi bo‘yicha qancha o‘tkazadi** 8 500 so‘m
- **Ammo! Targ‘ibot shartnomasi bo‘yicha** Market chegirma summasini (1 000 so‘m) o‘tkazadi — ushbu summaga siz va Market tomonidan EHF imzolanadi
- **Sotuvchi uchun natija:** 8 500 + 1 000 = yana o‘sha 9 500 so‘m

3-holat. Yandex Plus ballari bilan to‘lash

- **Vitrinadagi narx:** 10 000 so‘m
- **Xaridor quyidagilarni to‘laydi:** pul bilan 9000 so‘m — bu tovarni sotishdan tushgan tushum, kassa cheki ushbu summaga tuziladi; va 1000 balldan foydalanadi
- **Market joylashtirish xizmatini ushlab qoladi:** 500 so‘m
- **Market joylashtirish shartnomasi bo‘yicha qancha o‘tkazadi:** 8 500 so‘m
- **Targ‘ibot shartnomasi bo‘yicha:** Market ballar bilan to‘langan qismni Plyus’ning 1 balli 1 so‘mga teng ekani hisobidan o‘tkazadi (1000 so‘m) — mana shu summaga siz va Market tomonidan EHF imzolanadi
- **Sotuvchi uchun natija:** 8 500 + 1 000 = 9 500 so‘m

Sotuvchi uchun xaridor chegirmani qanday ko‘rinishda — aksiyalar doirasida narxni pasaytirish orqali, ballarni yechib olish yoki promokodni qo‘llash orqali olganining farqi yo‘q. Har qanday holatda ham sotuvchi **bir xil summa — 9 500 so‘m** oladi.

Farq faqat to‘lovlar qanday shartnoma orqali amalga oshirilishida, shuningdek tovarni sotishdan va xizmatni sotishdan (targ‘ibot qilishdan) tushgan tushum aks ettirilishida:

- Xaridorlardan olingan pul miqdori — barchasi **joylashtirish** orqali amalga oshiriladi.
- Chegirmalar, promokodlar yoki ballar — **targ‘ibot** orqali.

SHAXSIY KABINETDA "MOLIYA" BO‘LIMI

Moliya bo‘limi xaridorlarning to‘lovlari, taqdim etilgan chegirmalar va sotuvchining to‘lovlari haqida xizmatlar narxini ochiqlab bergan holda batafsil ma’lumot olish imkonini beradi.

Market Yandex Go bilan barcha o‘zaro hisob-kitoblar avtomatik tarzda amalga oshiriladi. Yakuniy to‘langan summani sotuvchi shaxsiy kabinetda **Moliya → To‘lovlar** bo‘limida ko‘radi.



To‘lovlar, xizmatlar qiymati va realizatsiya qilingan tovarlar bo‘yicha ma’lumotlarni ochiqlash uchun kalendar (hisobot) oyi yoki ixtiyoriy davr uchun hisobotlarni shakllantirish va yuklab olish lozim. Buning uchun Moliyaviy hisobotlar sahifasiga o‘tish kerak. Sahifada har bir hisobot uchun mas’ul bo‘lgan bir nechta ichki varaqlarni ko‘rasiz. Hisobotlar muayyan savollarga javob beradi va ma’lumotlarni ochiqlashga yordam beradi. Ularning bari buyurtma va undagi tovarga bog‘liq holda tuzilgan.



Shaxsiy kabinetda har bir hisobot bilan ishlashni tushunish uchun yig‘ma jadval tayyorladik.

! Kurs davomida har bir hisobotni batafsil ko‘rib chiqamiz.

Shaxsiy kabinetda hisobot	Nimani ko‘rsatadi	Qanday hujjatlarni ochiqlaydi	Qanday savollarga javob topishga yordam beradi
To‘lovlar bo‘yicha	Hisobot xaridorlarning to‘lovlari, xaridorlarga pulni qaytarish, xaridorlarga chegirmalar, ushlab qolingan xizmat haqini ko‘rsatadi	Agent hisoboti	Qaysi buyurtmalar xaridor tomonidan to‘landi, qaysi buyurtmalar uchun pul qaytarildi? Qaysi xizmatlar uchun o‘zaro hisob-kitob (ushlab qolish) o‘tkazildi? Nima uchun pul o‘tkazilgan? Nega buncha?
Xizmat haqi bo‘yicha	Hisobot joylashtirish shartnomasi bo‘yicha marketpleys xizmatlari: tovarlarni vitrinaga joylashtirish, omborda qayta ishlash, yetkazib berish, to‘lovlarni qabul qilish va o‘tkazish, saqlash, ortiqcha yetkazib berishlarni qabul qilish, tovarlarni ombordan olib chiqish va utilizatsiyani tashkil etish bo‘yicha xarajatlaringizni ko‘rsatadi.	Xizmat ko‘rsatish dalolatnomasi va hisob-faktura	Xizmat narxi qanday va qaysi tarif bo‘yicha hisoblanadi?

Shaxsiy kabinetda hisobot	Nimani ko‘rsatadi	Qanday hujjatlarni ochiqlaydi	Qanday savollarga javob topishga yordam beradi
Realizatsiya bo‘yicha	Hisobot tovarlarning harakatini ko‘rsatadi: qancha va qaysi summaga yetkazib berish uchun topshirildi, xaridorlarga yetkazib berildi, sotib olinmadi va bir oy ichida qaytarildi	Yetkazib berilgan va qaytarilgan tovarlar bo‘yicha tuzilgan cheklar summasi Soliq.uz	Qancha tovar sotilgan, qaytarilgan yoki sotib olinmagan?
Buyurtmalar bo‘yicha	Hisobot tezkor hisob uchun (buxgalteriya hisobi maqsadlari uchun emas) har bir buyurtma haqida batafsil ma’lumot beradi — tarkibi, statusi, to‘lov usuli, narxi, chegirmasi, yuklab jo‘natish ombori, yuklab jo‘natish va yetkazib berish sanasi, u bo‘yicha xizmatlar narxi va hokazo. Bundan tashqari, siz xizmatlarimiz narxi, shuningdek, har bir buyurtmaning marjasini ko‘rasiz.		Hisobot tuzilgan sanada buyurtmaning statusi qanday? Har bir buyurtma uchun qanday xizmatlar va chegirmalar qo‘llanilgan? Buyurtma bo‘yicha foyda qancha?

TO‘LOVLAR ORALIG‘I

To‘lovlar **sotuvchi shaxsiy kabinetda qaysi to‘lov turini tanlaganiga** qarab amalga oshiriladi. Mavjud variantlar: har kuni, har hafta, ikki haftada bir marta, har oy.

Частота выплат	Когда ждать	Тариф
Ежедневно	Через один рабочий день после доставки заказа.	2,5%
Еженедельно	4-го, 12-го, 20-го и 28 числа каждого месяца. Если это вторник, четверг или выходной, то в следующий за ним рабочий день. > Подробно	2%
Раз в две недели	4-го и 20 числа каждого месяца. Если это вторник, четверг или выходной, то в следующий за ним рабочий день. > Подробно	1,5%
Ежемесячно	4-го числа каждого месяца. Если это вторник, четверг или выходной, то в следующий за ним рабочий день. Например, аыплаты за феараль могут прийти 4 марта.	1%

Bir oyda bir marta to‘lovlar grafikini o‘zgartirish mumkin **(Moliya → To‘lovlar → To‘lovlar oralig‘i)**. Yangi grafik kelayotgan 4-sanadan kuchga kiradi.

Market pulni tanlangan to‘lov grafikiga muvofiq o‘tkazadi.

Joylashtirish shartnomasi bo‘yicha quyidagi shartlarga rioya qilinganda:

- Buyurtma yetkazilgan
- Xizmatlar ushlab qolingan
- Qaytarilgan buyurtmalar bo‘yicha qarzdorlik mavjud emas

Targ‘ibot shartnomasi bo‘yicha quyidagi shartlarga rioya qilinganda:

- Buyurtma yetkazilgan
- Elektron hisob-faktura siz va Market tomonidan imzolangan

Tanlangan to‘lov oralig‘i bilan sanab o‘tilgan shartlar bajarilganda siz Joylashtirish shartnomasi va Targ‘ibot shartnomasi bo‘yicha to‘lovlarni bir kunda olasiz. To‘lovni to‘lov topshiriqnomasidagi to‘lov maqsadi bo‘yicha aniqlashtirish lozim.

DARS XULOSALARI

1. Marketpleysga kelgach, Market Yandex Go bilan ikki shartnoma tuzasiz: Joylashtirish shartnomasi va Targʻibot shartnomasi
2. Joylashtirish shartnomasi boʻyicha Market Yandex Go sizga xizmatlar koʻrsatadi, shuningdek, buyurtmalar uchun xaridorlardan pul qabul qilish boʻyicha agent vazifasini bajaradi
3. Xaridor bilan tovar oldi-sotdi shartnomasini siz vositachi ishtirokisiz tuzasiz, Market Yandex Go sizning tovaringizni sotish boʻyicha vositachi emas
4. Targʻibot shartnomasiga koʻra, siz qoʻshma aksiyalarda ishtirok etish orqali Market Yandex Go foydalanuvchilarini marketpleysga jalb qilish xizmatlarini koʻrsatasiz.
5. Joylashtirish shartnomasiga koʻra, siz Market Yandex Goʻdan foydalanuvchilarga yetkazib berilgan buyurtmalar uchun marketpleys ish haqi ushlab qolingan holda pul olasiz.
6. Targʻibot shartnomasi boʻyicha sizga xaridorlarga taqdim qilingan barcha chegirmalar miqdorida haq toʻlanadi